

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI №. PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

NURDINBAYEVA NARGIZAXON MAXAMMADJON QIZI

**O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA “FARZAND” KONSEPTINING
VOQELANISHI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

UO‘K: 811.512.133’37:008+821.512.133.09

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Nurdinbayeva Nargizaxon Maxammadjon qizi

O‘zbek badiiy matnlarida “farzand” konseptining voqelanishi.....3

Nurdinbaeva Nargizaxon Maxammadjon kizi

The realization of the concept of “child” in Uzbek literary texts.....25

Нурдинбаева Наргизaxon Махаммаджон кизи

Реализация концепции “ребенка” в узбекских литературных текстах.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works52

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI №. PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

NURDINBAYEVA NARGIZAXON MAXAMMADJON QIZI

**O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA “FARZAND” KONSEPTINING
VOQELANISHI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil3714 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinova
filologiya fanlari doktori, professor

Usmanov Farxad Faxriddinovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2026-yil "_____" dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.M.Uluqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

I.O'.Darvishov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

F.I.Karimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida ko‘plab yangi innovatsion yondashuvlar asosida fanlararo integratsiyaning vujudga kelishi tadqiqotlarning inson va jamiyatga yo‘naltirilgan ilg‘or tendensiyalarda amalga oshirilishini ta‘minlab kelmoqda. Xususan, zamonaviy tilshunoslikning lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvopersonologiya, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvokulturologiya kabi yo‘nalishlarida konseptning shaxs omili bilan uzviy ravishda antropologik nuqtayi nazardan o‘rganilishi samarali ilmiy-amaliy natijalarga olib kelmoqda. Ayni davrda ham lingvistik jarayonlarning mental hamda ijtimoiy jihatlariga e‘tibor qaratilishi tilshunoslikka oid tadqiqotlarning amaliy ahamiyati va samaradorligini ta‘minlashda dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoning yetakchi lingvistik maktablari so‘nggi yillarda o‘z ilmiy dasturlariga jamiyat vakillarining tafakkuri, yashash tarzi, kundalik hayoti, olam haqidagi tushunchalarini o‘zida aks ettirgan konseptlarni turli tamoyil va yondashuvlar asosida o‘rganishni dolzarb vazifalardan biri sifatida kiritib kelmoqda. Konsept – inson (shaxs) – lisoniy birlik tamoyili asosidagi tahlillar orqali tadqiqotlar mazmun-mohiyatiga bog‘liq holatlarga oid ijtimoiy va individual muammolarni aniqlash, turg‘un bo‘lib qolgan masalalarga aniq hamda to‘g‘ri ilmiy-nazariy yechim topish faol tarzda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, konseptni milliy-madaniy va lingvistik jihatdan tavsiflash, uning badiiy matn takomili va nutq vaziyatidagi o‘rnini zamonaviy tilshunoslik metodlari orqali o‘rganish ilmiy-nazariy jihatdan dolzarb zarurat sifatida qaralmoqda.

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda konsept tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirildi. Jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan tub o‘zgarish va islohotlar natijasida o‘zbek konseptosferasining mundarijasi yanada kengaydi. Buning samarasi o‘laroq, zamonaviy tilshunoslik maktablarida badiiy matnlarda milliy va madaniy xususiyatlarni ifodalagan konseptlar mavzusiga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. “O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichi ana shu jihatlarning barchasini chuqur idrok etib, bu boradagi yondashuv va sa‘y-harakatlarni tubdan o‘zgartirishni talab qilmoqda. Xalqimiz hayotining barcha sohalari qatori fuqarolarimizning ongi va dunyoqarashida jiddiy o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etmoqda”¹. O‘zbek tilshunoslari oldiga qo‘yilayotgan masalalardan biri tadqiqotlarda konseptning konseptual-lingvistik tuzilishini to‘liq, batafsil va mukammal o‘rganish, mavzuga oid ilmiy-amaliy bo‘shliqlarni asosli nazariy ma‘lumotlar bilan boyitish va to‘ldirishdir. Shu bois o‘zbek milliy madaniyatida muhim o‘rin tutgan “farzand” konsepti va uning mazmun ko‘lamida mavjud bo‘lgan umumbashariy tushunchalar, shuningdek, milliy-madaniy, etnik qadriyatlar tabiatini ifoda etuvchi belgilarni leksik-semantik jihatdan tadqiq etish zimmadagi muhim, bajarilishi zarur vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 7.

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son Qarori bilan “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida”gi Nizomi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020-yil 11-martda 139-sonli “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2020-yil 29-oktabrda “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrda “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli Qarori va ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. XX asr o‘rtalari – XXI asr boshlari jahon tilshunosligida konsept tadqiqi bo‘yicha ishlar L.Vaysgerber, E.Sepir, L.Uorf, J.Lakoff, M.Jonson, U.Cheyf, S.A.Askoldov, Y.N.Stepanov, N.I.Jinkin, Y.S.Kubryakova, K.F.Sedov, Y.N.Karaulov, V.A.Maslova, S.G.Vorkachev, N.D.Arutyunova kabi olimlarning tadqiqotlaridan boshlangan.

O‘zbek tilshunosligida konseptning lingvokulturologik, lingvokognitiv va pragmatik xususiyatlari N.Mahmudov, Sh.Safarov, D.Xudoyberganova, B.Mengliyev, H.Ne‘matov, D.Agzamova, R.Ibragimova, O.Hazratqulova, S.Po‘latova, F.Jalolova, N.Abdullayeva va boshqalar ishlarida batafsil yoritilgan. Tadqiqotlarda konsept til egalarining dunyoqarashi va milliy-madaniy belgilarini aks ettiruvchi birlik sifatida o‘rganilgan.

O‘zbek filologiyasida “farzand” konsepti bilan bog‘liq tadqiqotlar monografik planda maxsus o‘rganilmagan bo‘lsa-da, S.Ro‘ziyeva² “bolalar” mikrokonseptini “oila” konseptining tarkibi qismi sifatida tadqiqqa tortgan, turk maqollarida qiz va o‘g‘il farzandning konseptuallashuvi N.Altinboyev³ tomonidan tahlil qilingan.

V.Giyosova⁴ bolalarga murojaat birliklarining milliy va madaniy xususiyatlariga, O.Anorqulova o‘zbek maqollaridagi “bola” tushunchasining semantik munosabatlariga⁵, shuningdek, “oila” konseptini tashkil qiluvchi

² Рузиева С. “Оила” тушунчаси ва унинг инглиз ва ўзбек тиллари маданиятида акс этиши: Филол. фан. фалс. д-ри. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 57 б.

³ Altinboyev N. Turk maqollaridagi “oila” konseptining lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. fals. d-ri. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2024. – 122 b.

⁴ Giyosova V. Bolalarga murojaatni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. fals. d-ri. (PhD) ... diss. – Farg‘ona, 2024. – 145 b.

⁵ Anorqulova O. O‘zbek tilida “ota” konseptining lisoniy-kognitiv talqini: Filol. fan. fals. d-ri. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 48 b.

uzvlardan biri⁶ sifatidagi assotsiativ jihatlariga to‘xtalib o‘tganlar. G.Rozikova va N.Rahmatova⁷ badiiy adabiyotda “ota” konseptining verballashuvi, ota tomonidan bolalarga nisbatan qo‘llanuvchi nominativ birliklar haqida so‘z yuritadilar. D.Yuldasheva⁸ bolalarga xos matnlarning fonetik-fonologik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik-uslubiy, kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini yoritib bergan. Yuqoridagilarda “farzand” konsepti boshqa konseptlar nuqtayi nazaridan qisman o‘rganilgan bo‘lib, uning badiiy matnda voqelanishi va turli lingvistik vositalar asosida verballashuvi alohida tadqiq obyekt sifatida tahlilga tortilmagan. Mazkur jihat ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilining sistem-struktur va antropotsentrik tadqiqi” mavzu yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek badiiy matnlarida “farzand” konseptining voqelanishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“farzand” konseptining jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi, yondashuvlari hamda tamoyillarini tahlil qilish orqali uning semantik, uslubiy mohiyatini ochib berish;

badiiy matnlarda “farzand” konseptining voqelanishida ishtirok etuvchi lingvistik vositalarni ajratish, tasniflash va tahlil qilish;

badiiy matnlarda qo‘llangan “farzand” konseptini ifodalovchi til birliklarining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini yoritib berish;

“farzand” konsepti bilan bog‘liq paremiologik birliklarda milliy xarakter va mentalitetning ifodalanishini lisoniy jihatdan ochib berish;

“farzand” konseptini tavsiflovchi o‘xshatishlar va murojaat shakllarining funksional-semantik va uslubiy xususiyatlarini aniqlash;

o‘zbek badiiy matnlarida etnografizmlar, xususan, bolalar milliy o‘yinlari leksikasi tahlili orqali farzandga oid milliy-madaniy konseptual maydonning uzviy va o‘ziga xos tabiatini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida G‘afur G‘ulom, Oybek, Said Ahmad va O‘tkir Hoshimov asarlarida qo‘llangan “farzand” konseptini ifodalovchi leksik birliklar, murojaat shakllari, o‘xshatishlar, paremiologik birliklar va etnografizmlar olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek konseptosferasi, “farzand” konseptining uslubiy-funksional, milliy-etnik, leksik-semantik va badiiy-uslubiy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, etimologik, komponent, konseptual, qiyoslash-chog‘ishtirish va leksik-semantik tahlil usullaridan foydalanilgan.

⁶ Anorqulova O. Hozirgi o‘zbek tilida “oila” konseptining lisoniy-kognitiv tahlili: Filol. fan. d-ri. (DSc) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2025. – 75 b.

⁷ Rozikova G., Rahmatova N. Badiiy adabiyotda “ota” konseptining verballashuvi / Monografiya. – Farg‘ona, 2022. – 105 b.

⁸ Юлдашева Д. Ўзбек болаларига хос оғзаки ва ёзма матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2022. – 225 б.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dunyo va o'zbek tilshunosligida mavjud ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlar tahlili asosida "farzand" konseptining tarixiy-madaniy taraqqiyot bosqichlari, iyerarxik, ko'p qatlamli semantik-struktural modellari hamda nutqiy-uslubiy realizatsiya mexanizmlari aniqlanib, tizimli ravishda asoslab berilgan;

badiiy matnlarda qo'llangan "farzand" konseptini voqelantiruvchi til birliklarining mazmuniy qatlamlari xalqona qadriyatlar, milliy stereotipik tasavvurlar hamda olamning milliy-lisoniy manzarasini kodlovchi kognitiv bilimlarga asoslanganligi dalillangan;

badiiy matnlarda "farzand" konsepti bilan bog'liq paremiyalar, o'xshatishlar hamda murojaat shakllarida mujassamlashgan milliy xarakter va mentalitetning madaniy asoslari, shuningdek, lingvistik-ekspressiv vositalari konseptual metod asosida ochib berilgan;

badiiy matnlardagi "farzand" konseptini ifodalovchi lingvistik birliklar, etnografizmlar, badiiy ko'chimlar, milliy dunyoqarashning lisoniy ifodalari hamda nutqiy qo'llanish jarayonlaridagi kognitiv, perseptiv, xulosaviy va baholovchi bosqichlar vositasida shakllangan kommunikatsion-konseptual tuzilmalari o'zbek milliy konseptosferasining integrativ in'ikosi ekanligi dalillar bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, qo'llanilgan usul va nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, to'plangan materiallar tahlili orqali asosiy ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi, o'zbek tilidagi "farzand" konseptining leksik-semantik, badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilishda badiiy matnlarda qo'llangan lingvistik vositalar xalqimizning milliy-madaniy qadriyatlari, marosimlari, dunyoqarashi va mentalitetiga uzviy aloqadorligidan kelib chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur ish nazariy tilshunoslik rivojiga hissa qo'shib, badiiy matnda qo'llangan konsept va u bilan bog'liq tushunchalarni aniqlashda, ilmiy tadqiqotlar dasturlarini ishlab chiqish bilan bog'liq dolzarb muammolarga yangi yechimlar bo'ladi. Izlanishlar natijalari tilshunoslikda antropotsentrik paradigma asosida qilinadigan tadqiqotlarni o'rganish va rivojlantirish uchun yangi modellarni ishlab chiqishga imkon beruvchi ma'lumotlar majmui bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to'plangan materiallardan kelgusida konseptlarni leksik-semantik, funksional-uslubiy, lingvomadaniy, lisoniy-kognitiv jihatdan o'rganishning tadqiq usullarini belgilashda, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvokulturologiya, leksikologiya, zamonaviy lingvistika, matn lingvistikasi va badiiy matnning lisoniy tahlili bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma hamda risolalarni yaratishda ko'rinadi, to'plangan materiallar, tadqiqot natijalari mazkur fanlarni o'qitish va bu sohalarga oid nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tishda manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek badiiy matnlarida "farzand" konseptining voqelanishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

dunyo va o'zbek tilshunosligida mavjud ilmiy-nazariy fikrlar va yondashuvlar tahlili asosida "farzand" konsepti haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar, mashhur

adiblarning “farzand” tushunchasini ifodalovchi soʻzni qoʻllashdagi amaliy-ijodiy lingvistik mahorati va pozitsiyalari, mazkur konseptning tarixiy-madaniy davriy taraqqiyoti borasidagi tavsif va tasniflardan davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi 2022-2023-yillarga moʻljallangan IL-52 tur-21091433 “Oʻzbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)” boʻyicha amaliy loyiha doirasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-sentabrdagi № 01/4-4087-son maʼlumotnomasi) Natijada oʻzbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish, oʻzbek realiyalari maʼnosini izohlashga oid yangi ilmiy-nazariy maʼlumotlar bilan boyitilgan;

badiiy matnlarda “farzand” konseptini ifodalovchi lingvistik birliklarning oʻzbek leksik fondidagi oʻxshatishlar, etnografizmlar, erkalamalar, oʻyin va turli milliy jarayonlardagi lingvomadaniy koʻlami obrazli, badiiy koʻchimlar, hayotiy voqeeliklar, koʻrinishlar asosida uning nutqiy qoʻllanish jarayonlardagi qirralari: anglash, mushohada, xulosalash va hukm kabi kommunikatsion-konseptual asoslariga oid fikrlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan PZ-2020042022-“Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 6-sentabrdagi № 01/4-4025-son maʼlumotnomasi) Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar orqali platforma zaruriy maʼlumotlar bilan boyitilgan;

“farzand” konseptining etimologiyasi, tuzilmaviy va milliy shakllanish evolyutsiyasi, uslubiy xususiyatlari lingvomadaniyatshunoslik, matnshunoslik, stilistika tamoyillari orqali isbotlangan va farzand haqidagi milliy stereotip tasavvurlar qayta koʻrib chiqilgan hamda unga taalluqli bilimlar majmua sifatida oʻrganish muhimligi aniqlangan xulosalardan 2024-2025-yillarda OʻZMTRK “Oʻzbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Taʼlim va taraqqiyot”, “Millat va maʼnaviyat” eshittirishlari ssenariylarini yozishda foydalanilgan. (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 10-sentabrda № 26-36-1029-son maʼlumotnomasi) Natijada koʻrsatuv va eshittirishlarda milliylik, oʻzbek tili va adabiyotining zamonaviy talqinlari targʻiboti amalga oshirilib, ommabopligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. Bular Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda oʻz ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan boʻlib, jami 136 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti hamda predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Zamonaviy tilshunoslikda “farzand” konsepti tadqiqining nazariy muammolari”** deb nomlangan. Mazkur bob ikkita bo'limni o'z ichiga olgan. Bobning 1.1-bo'limi “Konsept tahliliga lingvomadaniy-kognitiv yondashuvlar” deb nomlangan bo'lib, unda rus va o'zbek tilshunosligida konsept bo'yicha qilingan tadqiqotlar, mazkur terminga tilshunoslar tomonidan berilgan ta'riflar, konseptning tushuncha, ma'no, so'z kabi birliklardan farqlanishi yoritib berilgan.

Konsept terminini dastlab rus tilshunosi S.A.Askoldov “Konsept va so'z” (“Концепт и слово”) maqolasida qo'llagan. V.A.Maslovaning yozishicha, XX asrning birinchi yarmigacha ilmiy adabiyotlarda “konsept” tushunchasi termin sifatida qabul qilinmagan. S.A.Askoldovning yuqoridagi maqolasi va shu mavzudagi boshqa chiqishlariga qaramasdan bu masala yetarlicha o'rganilmagan⁹. Mazkur termin rus ilmiy tadqiqotlarida XX asrning 80-yillaridagina paydo bo'lgan. S.A.Askoldov konsept va so'z o'rtasidagi munosabatlar lingvistika va semantikada muhim masalalardan biri ekanligi, konsept insonning dunyoqarashi va tafakkuri bilan bog'liq tuzilma ekanligi haqida fikrlarni ilgari surgan. Uning fikricha, konsept – bu fikrlash jarayonida bizga bir xil turdagi, aniqlanmagan ko'plab predmetlarni ifodalovchi ongdagi tasavvurdir¹⁰. V.I.Karasik va I.A.Sterninlar¹¹ zamonaviy konseptologiyaning ayrim yo'nalishlari, konseptual tadqiqotlar metodologiyasi, rus, ingliz, nemis, fransuz va xitoy tillaridagi konseptlar tahlillarini lug'at shaklida keltiradilar. Yangi tipdagi ushbu lug'at lingvokulturologik konseptologiyaning yutuqlaridan biri sanaladi. T.V.Jerebilo o'z lug'atida konseptga xotira, mental leksikon, konseptual tizim va miyadagi tilning operativ ma'noli birligi¹² sifatida ta'rif beradi. Rus tilidagi tadqiqotlarda konseptning lingvokognitiv xususiyatlariga ko'proq urg'u berilgan va “ma'no, “mazmun”, “tushuncha” hodisalari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida konsept ta'rifi va uning ma'no mundarijasini tavsiflashda prof. Sh.Safarov ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Uning “Kognitiv tilshunoslik” monografiyasida konseptning lisoniy moddiylishuvi ong va til tizimi o'rtasidagi hamkorlikning mahsuli¹³ ekanligi ta'kidlanadi. Olimning konsept borasidagi nazariy qarashlari “Semantika” monografiyasida ham aks etgan. Manbada yozilishicha, “konsept – murakkab tuzilishli, ammo yaxlit strukturaga

⁹ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика: Учебное пособие. – Мн.: ТетраСистемс, 2004. – С. 31.

¹⁰ Асколдов С.А. Концепт и слово. – Ленинград: Academia, 1928. – С. 31.

¹¹ Антология концептов. Под ред. Карасика В.И., Стернина И.А. – Волгоград: Парадигма, 2005. Том 1. – 352 с.

¹² Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Издание 5-е исправленное и дополненное. – Назрань: ООО Пилигрим, 2010. – С. 165.

¹³ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик / Монография. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 21.

ega bo‘lgan hodisadir. Uning tarkibida ongning timsol, tushuncha, hissiyotga oid tuzilmalari birlashadi va shu tuzilmalar inson dunyoqarashini aks ettiradigan voqelik tasvir-u tasavvurining asosini tashkil qiladi”, “konsept mundarijasida til sohiblarining dunyoqarashi va boshqa turli milliy-madaniy belgilarning aks topishi muqarrar”¹⁴.

H.Ne‘matov va B.Mengliyevlarning fikricha, konsept mohiyatini tushuncha va so‘z kategoriyalari bilan yaxlit paradigmada, ularning umumiy va farqli jihatlarini tekshirmasdan tushuntirib bo‘lmaydi¹⁵. Jumladan, tadqiqotlarida eskimoslar tilida “qor” va o‘zbeklarda “ot” (hayvon) tushunchasini ifodalovchi so‘zlar misolida konsept va tushunchaning milliy hamda individual tabiatini ochib berishgan. A.Mamatov konsept va lingvokulturema tushunchalarini bir-biridan farqlab, konseptni ong birligi, lingvokulturema esa til birligi sifatida ta’riflagan. Uning fikricha, konsept murakkab strukturaga ega bo‘lib, bir tomondan, tushunchaning barcha qirralarini qamrab olsa, boshqa tarafdin uni madaniyatning bir ko‘rinishi sifatida ifoda etuvchi dastlabki omillar, ya’ni u yoki bu tushunchaning etimologiyasi, tarixi, hozirgi kundagi assotsiativligi, qadr-qimmatliligi, konnotatsiyalarini qamrab oladi¹⁶.

Bobning 1.2-bo‘limi “Tilshunoslikda “farzand” konseptining o‘rganilishi” deb ataladi. “Farzand” tushunchasi barcha xalqlar madaniyatida alohida o‘ringa ega bo‘lib, ota-onaning o‘zidan keyingi qoldirgan bu dunyodagi izi, oilaning bir parchasi, el-yurt tayanchi va qo‘riqchisi sifatida xalq, elatning tarixi, e’tiqodi, marosimlari va madaniyatida o‘z ifodasini topgan. Tilshunoslikda “farzand” tushunchasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Rus tilshunosligida M.A.Kosicheva, T.S.Babarikina, S.K.Alfalki, A.I.Ashxarava, I.A.Kalyujnaya kabi tadqiqotchilar “farzand” konseptining o‘ziga xos xususiyatlarini leksik, paremiologik va frazeologik vositalar orqali ochib berishgan. M.A.Kosicheva dissertatsiyasida ingliz madaniyatidagi “bola” tushunchasining qadriyat bilan bog‘liq xususiyatlarini, “bola” tushunchasini obyektivlashtiruvchi birliklarni guruhlarga bo‘lib tavsiflagan¹⁷. I.A.Kalyujnaya “bolalik” maqolasida rus va nemis tillaridagi bola bilan bog‘liq tushunchalarning o‘xshash va farqli jihatlarini izohlab bergan. Uning ta’kidlashicha, “bolalik” konsepti “inson” konseptining “yosh” parametri bo‘yicha asosiy bosqichlarini ifodalaydi hamda bola xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatgan holda aniqlashtirishni o‘zida aks ettiradi¹⁸.

Turkiy tilshunoslikda ham “farzand” tushunchasi ko‘p tadqiq etilayotgan ishlar sarasiga kiradi. E.T.Tolokova qirg‘iz tilidagi “bola” konseptining lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqi bilan shug‘ullangan. U bolalar bilan bog‘liq so‘zlarning konnotativ va emotsional-ekspressiv ma’nolarini, ularning

¹⁴ Сафаров Ш. Семантика / Монография. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б. 274-279.

¹⁵ Неъматов Х., Менглиев Б., Ботирова А. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари / Монография. – Тошкент, 2020. – Б. 49.

¹⁶ Mamatov A. Zamonaviy lingvistika / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. – B. 97.

¹⁷ Косычева М.А. Концепт «child» и средства его реализации в английской лингвокультуре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2013. – 23 с.

¹⁸ Калюжная И.А. Детство. Антология концептов. Под ред. Карасика В.И., Стернина И.А. – Волгоград: Парадигма, 2007. Том 5. – С. 225.

paydo bo'lish mexanizmi hamda tabiatini o'rgangan¹⁹. “Qirg'iz tili sinonimlar lug'ati”da berilgan *бала, перзент, туяк, тукум, кулун, чурпө* so'zlari *odamlarning ortida qolgan avlodi* ma'nosini bildiradi. Lug'atda, shuningdek, *bola (бала)* so'zi qushning bolasiga nisbatan ham ishlatilishi qayd etilgan²⁰. Turk tadqiqotchisi Ali Dashman (Ali Daşman) turk va qirg'iz tillarida bola konseptining ifodalanish masalalarini o'rgangan. Uning yozishicha, qirg'izlarda bola yurishni boshlaganda *tuşoo kesüü* marosimi o'tkaziladi. Bolaning ikki oyog'i rangli ip bilan bog'lanadi va so'ngra kesiladi. Yoshi teng bo'lgan bolalar o'rtasida o'tkaziladigan yugurish musobaqasida ularga shirinliklar beriladi. Bu an'ananing Anadoli hududlari ayrim joylarida ham davom etayotganligi kuzatilgan bo'lsa-da, unutilishga yuz tutganligi ham qayd etilmoqda²¹.

O'zbek tilida “farzand” tushunchasi *bola, arzanda, zurriyot, bola-chaqa, bola-baqra, avlod* kabi shaxs otlari; *chaqaloq, go'dak, o'smir, o'spirin* kabi yosh davrlarini nomlovchi otlar; *dilband, nuridiyda, qo'zichoq, toychoq, bo'taloq, qizaloq* kabi ijobiy hamda *xuvari, shaytonvachcha, valad, juvonmarg, haromi, takasaltang* kabi salbiy bo'yoqdorligi kuchli leksemalar; *murg'ak, jajji, mitti, kichik, beg'ubor, sof, toza, o'yinqaroq, sho'x, o'ynoqi, to'polonchi, beqaror, yo'lga kirmagan* (kichik yoshdagi bolalar haqida); *tajribasiz, bo'z, bo'lali, mo'ychinak tishlamagan, ona suti og'zidan ketmagan, mo'ylovi sabza urmagan* (o'rta yoshdagi bolalar haqida) kabi sifat va iboralar bilan birgalikda qo'llanadi.

O'zbek tilshunosligida “farzand” tushunchasi tadqiqiga bag'ishlangan ishlar sirasida bolalarga mo'ljallab yaratilgan “So'z sandiqchasi”²² nomli lug'atni alohida e'tirof etishimiz mumkin. Mazkur lug'atda 700 ga yaqin so'z va ularning ma'nolari sodda hamda tushunarli tarzda izohlangan. “Bolalar assotsiativ lug'ati”²³ esa *stimul so'z – javob reaksiyasi* tipida yaratilgan bo'lib, unda 100 ta stimul so'z bo'yicha maktabgacha yoshdagi (3 yoshdan 7 yoshgacha) bolalar lisoniy xotirasida tiklangan 18000 dan ortiq javob reaksiyasi (assotsiatsiyalar) o'rin olgan. Chunonchi, D.Yuldasheva, S.Ruziyeva, U.Yigitaliyev, F.Uzmanov, V.Giyosova, O.Anorqulova kabi tadqiqotchilar ham o'z ishlarida bolalar mavzusiga murojaat qilishgan. “Farzand” tushunchasi bevosita til egalarining mentaliteti, turmush tarzi va milliy-madaniy tasavvurlari bilan bog'liq bo'lib, tojikcha ot “ota-onaning bolasi” ma'nosini anglatadi (ТЖРС, 406)²⁴. Farzandni tarbiyalash va uni voyaga yetkazish kabi mas'uliyatli vazifalarni bajarish ko'plab xalqlar uchun burch sanaladi, chunki farzand insonning biologik rivojlanish bosqichinigina ifodalab qolmay, jamiyat bilan bog'lanish nuqtasidir. Oilaning to'kisligi farzand bilan

¹⁹ Төлөкова Э.Т. Кыргыз тилиндеги «бала» концепти (лингвомаданият таануу илиминин аспектиси боюнча): Филология илимдеринин кандидаты окумуштуулук даражасын изденип алуу үчүн жазылган диссертациянын автореферати. – Бишкек, 2012. – 30 б.

²⁰ Жапаров Ш., Сейдакматов К., Сыдыкова Т. Кыргыз тилинин синонимдер сөздүгү (оңдолуп, экинчи басылышы) – Бишкек: Бийитик, 2015. – Б. 58.

²¹ Daşman A. Türkçe ve Kırgızcada Çocuk Kavramı Üzerine. Külliye, 4(2), 277-291. DOI: 10.48139/aybukulliye.1338481, 2023. – S. 279.

²² Mahmudov N. So'z sandiqchasi: O'zbek tilining izohli lug'atchasi / – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 216 b.

²³ Qurbonova M., Misirova D. Bolalar assotsiativ lug'ati. [Matn]: o'quv-uslubiy lug'at / – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 164 b.

²⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (Форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009. 3-ж. – Б. 232.

o‘lchanadi va bu tushuncha qadriyat darajasiga ko‘tarilib ulug‘lanadi. Farzand o‘zbek mentalitetida ekzistensial qadriyatdir. Qarigan daraxtning o‘rnini yangi ko‘chat egallagani kabi, odamdan farzand qolishi uning hayotining mazmunini tashkil etadi²⁵.

Tadqiqotning **“Badiiy matnlarda “farzand” konseptini voqelantiruvchi vositalarning lisoniy tahlili”** deb nomlangan II bobi uch qismdan iborat bo‘lib, unda “farzand” konseptini tavsiflovchi lingvistik birliklar va ularning leksik-semantik tahlili, o‘xshatish vositasining semantik-struktur xususiyatlari va uslubiy vositalar tahlili amalga oshirilgan. Dissertatsiyaning 2.1-bo‘limi “Farzand” konseptini tavsiflovchi lingvistik birliklar va ularning leksik-semantik tahlili” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bo‘limda badiiy matnda qo‘llangan farzand tushunchasi va uni voqelantiruvchi lingvistik vositalar o‘rganilgan. “Farzand” konsepti *“kichik, mayda, uncha katta bo‘lmagan, voyaga yetmagan, yosh”* umumiy semalari mavjud leksik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek madaniyatida “bola” tushunchasini anglatuvchi leksik birliklarda milliy xarakter, o‘zbekona dunyoqarash va olam haqida umumiy tasavvurlar aks etadi. “Farzand” konseptini tavsiflovchi lingvistik birliklar quyidagi mazmuniy guruh (to‘da)larga ajratildi:

1) bolalarning yosh davrlarini ifodalovchi so‘zlar: *embrion, homila, chaqaloq, go‘dak, bola, o‘smir, yigit, qiz, o‘spirin*; O‘zbek madaniyatida bolalarning yosh xususiyatlari va o‘sha davr bilan bog‘liq kechadigan psixologik, jismoniy, aqliy rivojlanish jarayonlariga alohida e‘tibor qaratilganligi uchun har bir davr maxsus nomlar bilan ataladi. O‘zbek tilida “farzand” konsepti bevosita “bolalik” tushunchasi bilan bog‘lanadi. Yosh kategoriyasi bo‘yicha qilingan ishlarda *bolaning ona qornidagi davrini nomlovchi terminlar* haqida ma‘lumotlar aks etmagan. Jumladan, *embrion, homila, chaqaloq, go‘dak, bola* kabi otlar bolaning kichik yosh davrlarini ifodalaydi. *Yangi farzand ko‘rganlar, albatta, chaqaloqni uning tizzasiga qo‘yib olishardi.* (S.Ahmad. “Ufq”) *O‘shanda Shamsiddinim yo‘lga kirmagan buvak edi.* (S.Ahmad. “Turnalar”) O‘zbek nutq madaniyatida nafaqat tilning grammatik, leksik, uslubiy jihatlari, balki xalqning muloqot odobi, xulq-atvori va axloqiy qadriyatlari ham aks etadi, shu bois nutq jarayonlarida *homila* so‘zi faol qo‘llanmaydi. Bu so‘zning o‘rnida *gumona, yuk, yangi mehmon, bola, hanpusht* kabi evfemizmlar *yangi tug‘ilgan yoki endi tug‘iladigan bolalarga* nisbatan ishlatiladi. *“Bola”, “go‘dak”* so‘zlari ko‘chma ma‘noda kattalarga nisbatan *“g‘o‘r, ko‘p tajriba ega emas, sodda”* ma‘nolarini ifodalash uchun qo‘llaniladi va bu so‘zlar matnda sarkazm hodisasini yuzaga keltiradi. – *Xotirjam bo‘l, xoinlikni yomon ko‘raman. Lekin o‘zing qanoting chiqmasdan turib uzoqqa uchmoqchisan, bola! Ehtiyot bo‘l, sho‘ng‘ib ketmagin tag‘in.* (O‘.Hoshimov. “Bahor qaytmaydi”) *Bola* so‘zi Alimardonga Anvar tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘zda *“g‘o‘r”, “xom”* kabi konnotativ ma‘nolar aks etgan.

2) “bola” semasiga ega bo‘lgan shaxs otlari: *farzand, bola, arzanda, zurriyot, bola-chaqa, bola-baqra, sag‘ir, avlod, shumtaka, tirmizak, tirrancha, churvaqa, urvaqa, norasida, talpinchoq, qiz, o‘g‘il, bolapaqir, qaqildoq, chaqaloq, go‘dak, jujuq, bacha, asrandi, merosxo‘r, voris, nasl, davomchi;*

²⁵ Usmanov F. O‘zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. d-ri. (DSc) ... diss. – Andijon, 2024. – B. 140.

Shumtaka, tirrancha, tirmizak, zumrasha, shayton soʻzlari toʻpolonchi va shoʻx bolalarga nisbatan qoʻllansa-da, soʻzlar semasida uslubiy maʼno noziklari mavjud. *Shumtaka* – nihoyatda shoʻx, toʻpolonchi bola. (OʻTIL.VI.688.) *Shumtaka, yerda yuravermaysanmi! Ota-bobong qushmidi? Olovday shoʻx, tentakkina bola edi-da.* (Oybek. “Oltin vodiyan shabadalar”) *Tirmizak* qoʻlidan hech ish kelmaydigan yosh, kichkina, gʻoʻr bola²⁶ demakdir. *Tirrancha* soʻzi ham shu maʼnoda qoʻllaniladi. *Mirvali gʻijindi. “Iya, bu tirranchaning ham tili chiqib qopti-ku! Oʻzi nima gap?” – deb oʻyladi. Lekin javob qilmadi.* (S.Ahmad. “Jimjitlik”) *Arzanda* – orzu qilib yetishgan yolgʻiz oʻgʻil yoki qiz; eng sevikli, erka oʻgʻil yoki qiz. (OʻTIL.I.145.) – *Ikrommisan? Tinchmisan, bolam? Arzandaginang oʻynab-kulib yuribdimi? Ke, bitta choy ich!* (S.Ahmad. “Ufq”) Romanda *arzanda* soʻzi orqali Ikromjon va Jannat xolaning yolgʻiz farzandi Tursunboy tasvirlangan. *Arzanda* soʻziga sinonim tarzda *yolgʻizim, yakka-yu yagonam, peshonamga bitganim, bir donam, topgan tutganim* soʻzlari ham qoʻllaniladi.

3) metaforik koʻchim vositasida “bola” maʼnosini bildiruvchi leksemalar: *novda, iz, boʻgʻin, nihol, chiroq, ushoq, kurtak, urugʻ, magʻiz, danak, meva, payvand, ildiz, qarich, parcha, tuyoq, gʻoʻra, davlat, tuxum;*

2.1.1-jadval.

“Bola” semasiga ega boʻlgan leksemalarning metaforik model asosida tahlili

Metaforik model	Leksema	Denotat (lugʻaviy maʼno)	Referent (real obyekt)	Hosila maʼno
“Oʻsimlik → inson (farzand)”				
	Novda	Daraxatning yangi shoxchasi	Oʻsib kelayotgan butoq	Yosh, yangi
	Nihol	Yosh daraxt	Yangi oʻtqazilgan koʻchat	Hali yetuk boʻlmagan
	Gʻoʻra	Pishmagan meva	Oʻrikning pishib yetilmagan hosili	Tajribasi yoʻq
	Payvand	Oʻsimlik tanasiga ulangan qism	Yangi ulangan oʻsimlik qismi	Ota-onaga bogʻlangan, payvasta
	Boʻgʻin	Novdaning qismi	Oʻsimlikning boʻlakka boʻlingan qismi	Bir davr kishilarining nasli
	Urugʻ	Oʻsimlik urugʻi	Oʻsimlik doni	Bir ajdodning avlodi
	Danak	Urugʻdan chiqqan hosil	Oʻsimlikning magʻiz va poʻchoqdan iborat qismi	Farzand, nevara
	Magʻiz	Oʻsimlik mevasidagi yegulik qism	Danak magʻzi	Eng qimmatli, qadrli
	Meva	Oʻsimlik hosili	Daraxt mevasi	Nasl davomchisi
“Qush → inson (farzand)”				
	Tuxum	Embrion rivojlanayotgan qatlam	Qush tuxumi	Nasl, avlod, zurriyod
	Joʻja	Parranda bolasi	Tovuq bolasi	Himoyaga muhtoj, kichik
“Predmet → inson (farzand)”				
	Ushoq	Mayda boʻlak	Non boʻlagi	Kichik, mayda
	Qarich	Uzunlik oʻlchovi	Qoʻl oʻlchovi	Boʻy-basti kichik
	Chiroq	Yoritish asbobi	Yoritish qurilmasi	Davom ettiruvchi
	Iz	Belgi	Nishon, asar	Ota-onadan qolgan zurriyod

Metaforik koʻchim bir predmet nomi boshqa predmet yoki narsa nomiga ular oʻrtasidagi oʻxshashlik, yaqinlik va bogʻliqlik asosida koʻchishidir. Metaforik

²⁶ Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 256.

model – bu til egalarining ongida mavjud bo‘lgan tushunchaviy sohalararo aloqadorlik bo‘lib, bunda bitta sohaga taalluqli freymlar tizimi (soha-manba) boshqa soha (soha-nishon)ning tushunchaviy tizimini shakllantirishda asos vazifasini o‘taydi²⁷. “Farzand” so‘zi “yosh”, “yangi”, “g‘o‘r”, “bola”, “bo‘lak”, “mayda”, “yetilmagan” semalariga ega bo‘lgan leksemalarni konseptuallashtirishda ishtirok etadi. Tahlillarimizda keltirilgan badiiy metaforalar ta’sirchanlik va ifodaviylikni ta’minlagan va “o‘simlik→inson (farzand)”, “qush→inson (farzand)”, “predmet →inson (farzand)” metaforik model asosida o‘rganilgan.

Danak so‘zi *ko‘chma* bola, farzand (O‘TIL.I.759) ma’nolariga ega. “*Mevasidan danagi shirin*”, “*Danagidan mag‘zi shirin*” maqollarida “*meva*”, “*danak*”, “*mag‘iz*” so‘zlari ramziy ma’noda *farzand*, *bola*, *nevara* ma’nolarini ifodalagan. “*Bolaginamning bolasi – qandak o‘rik donasi*” maqolidagi *qandak* – o‘rik, jiyda kabi so‘zlarga qo‘shilib, ularning u qadar yirik bo‘lmaydigan, kamsuv, ammo sershira navini bildiradi. (O‘TIL.IV.44.) *Qandak* o‘rikning shirinligi, shakl jihatdan kichikligi *bolaga*, *nevaraga* o‘xshatiladi.

4) “bola” semasiga ega bo‘lgan somatizmlar: *jigar*, *ko‘z*, *qarog‘*, *suyak*, *pusht*, *tomir*, *qon*, *jon*, *tirnoq*, *bag‘ir*; *Jigar* so‘zi *ko‘chma* eng yaqin kishi, tug‘ishganday yaqin birodar; farzand (O‘TIL.II.644)ni bildiradi. *Jigarimni bag‘rimdan uzib, qo‘lingizga beryapman. Xor qilmang, zor qilmang, jon bolam.* (S.Ahmad. “To‘y kechasida”) Mazkur somatizm *jigargo‘sha*, *jigarband*, *jigarpora* so‘zlari tarkibida qo‘llanadi. *Jigar* deb ayrim o‘rinlarda yaqin do‘st yoki aka-ukalarga murojaat qilinadi. *Tirnoq* ko‘pincha farzandsizlik holatini ifodalashda, oddiy nutqda qo‘llanadi²⁸. *Qarog‘* 1. *esk.* Ko‘z qorachig‘i: ko‘z. 2. (*1-sh. Egallik shaklida* – qarog‘im) O‘zidan yosh shaxsga murojaatda yaqin munosabatni bildirish uchun qo‘llaniladi: nuri diydami, chirog‘im. (O‘TIL.IV.70) “So‘z latofati” kitobida farzandni *qarog‘im* deyilishi, bolani ko‘z qorachig‘iga tenglash deyarli barcha turkiy tillarga xos²⁹ ekanligi aytib o‘tilgan.

5) “bola” semasiga ega bo‘lgan leksemalarning “jins” jihatdan zidlanishi: “o‘g‘il” – “qiz”; *O‘g‘il* so‘zi izohli lug‘atda quyidagicha ma’nolarga ega: ayn. o‘g‘il; er jinsidagi farzand (o‘z ota-onalariga nisbatan); (faqat 1-sh. egallik qo‘shimchasi bilan) Farzandi tengi shaxsga nisbatan murojaat shakli. (O‘TIL.VI.487.) Shuningdek, “Devonu lug‘otit turk”da og‘ul – o‘g‘il; o‘z o‘g‘li bo‘lmasa ham, er bolalarga o‘g‘il deydilar³⁰ tarzida izohlangan. *Trest boshlig‘i hayhaylab unga yopishdi: – Yoshlik qilmang, o‘g‘lim, shaytonga hayf bering.* (O‘.Hoshimov. “Qalbingga quloq sol”) “*Qiz*” so‘zi *qizcha*, *qizaloq*, *ojiza*, *qaqildoq*, *qaqajon*, *bo‘roz*, *bolig‘a*, *bo‘yqiz*; shevalarda esa *duxtar*, *to‘nbichar*, *holva* shaklida ishlatiladi. Yangi tug‘ilgan bolaning jinsi aniqlash maqsadida nutqimizda o‘g‘il yoki holva so‘zlari qo‘llanadi. Qiz unashilganda, kuyov tomonidan qiz tomonga yuboriladigan sovg‘alarga holva qo‘shib yuborish odat bo‘lgani uchun (O‘TIL.II.414) qiz farzandlarni *holva* deb ataladi. – *Holva muborak bo‘lsin, inim. Xotining to‘tidedek qiz tug‘di.* (S.Ahmad. “Ko‘zlarimga o‘t bor edi”)

²⁷ Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект) / Монография. – Термиз: Сурхон-нашр, 2020. – Б. 22.

²⁸ Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 207.

²⁹ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: О‘zbekiston, 2014. – Б. 59.

³⁰ Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. – Тошкент, 1960. 1-т. – Б. 103.

6) “tengdoshlik” ma’nosini ifodalovchi leksemalar: *tengdosh, tengqur, bo’ydosh, yoshdosh, hamqur, bo’yinsa, teng-to’sh*; Ushbu birliklar “yoshi teng” ma’nosiga ega bo’lib, ham kattalar, ham kichik yoshdagilarga, shuningdek, jonivor va narsa-predmetlarga nisbatan ham ishlatiladi³¹. *Bundan tashqari bironta tengquring bo’lmasa, sirdoshing bo’lmasa, eshitadigan gaplar sarrof hindining abosi – kiyimiday bo’yi boshingdan bir gaz oshiq gaplar.* (G’.G’ulom. “Shum bola”)

7) oiladagi mavqeyiga ko’ra bir-biri bilan zidlanuvchi leksemalar: “*to’ng’ich*” – “*o’rtancha*” – “*kenja*”; *To’ng’ich* birinchi farzandni bildiradi va *ilk, bosh, katta* so’zlari bilan almashinib qo’llaniladi. “Qutlug’ qon” romanida “*birinchi qaldirg’och*” so’zi ko’chma ma’noda Gulnorning to’ng’ich farzandiga nisbatan qo’llanilgan. *Shoshmang, u hali birinchi qaldirg’och, keyinroq orqa-o’ngingizni ukalar, singillar bilan to’ldiradi u.* (Oybek. “Qutlug’ qon”) Qaldirg’och ko’chma biror narsaning paydo yoki sodir bo’lish belgisi; boshlab beruvchi, darakchi (O’TIL.IV.31) ma’nosini anglatadi. To’ng’ich farzand birinchi qaldirg’ochdek oilaga ilk quvonch xabarini olib kelganligi uchun ham shunday nom bilan ataladi. *Kenja* so’zining tub ma’nosini E.Shukur shunday izohlagan: “Oiladagi eng oxirgi farzand ma’nosini anglatgan “*kenja*” so’zi qadimgi davrlarda “*kechki*” degan ma’noni bildirgan. Bu odamning oxirgi hosili ma’nosida mantiqqa to’g’ri keladi. Xakaslar tilida ham bu so’z “*kechki*” ma’nosini bildiradi³². *Bir vaqtlar ayasi kenja ukasiga alla aytayotganida quloq solib o’rganib olgan.* (O’.Hoshimov. “Alla”)

8) “serfarzand” semasiga ega bo’lgan leksemalar: *bir etak bola, ayolmand, uvali-juvali*; *Bir etak bola* biror ayol yoki oilaning bolasi ko’pligini bildiradi. (O’TIL.II.72) – *Opang bir etak bola bilan o’ralashib qoldi. Mana buyog’iga nevaralar ham ko’paypti.* (S.Ahmad. “Nazm chorrahasida”) *Ayolmand* oilali, bola-chaqali, bola-chaqasi ko’p (O’TIL.I.199) ma’nolarini bildiradi. *Tuppa-tuzuk ayolmand kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi.* (G’.G’ulom. “Mening o’g’rigina bolam”)

9) “farzandsiz” semasiga ega leksemalar: *bolasiz, farzandsiz, befarzand, zurriyotsiz, bepusht, naslsiz, qisir, tirnoq gadosi, beiz, tumsa, tirnoqqa zor*;

Shuningdek, badiiy matnlarda “*farzandsiz*” ma’nosiga ega bo’lgan *bola ko’rmagan, farzandi yo’q, farzand yuzini ko’rmagan, pushti kuygan* birikmalar ham qo’llangan. *Tumsa* so’zi tug’maydigan, ko’chma hosilsiz, hech narsa unib-o’smaydigan (O’TIL.V.419) ma’nolarini anglatadi. *Menam tirnoqqa zor tumsa xotin emasman.* (O’.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”) *Tirnoq gadosi* farzandga zor odam. (O’TIL.II.176) Matnlarda o’g’il gadoyi shaklida qo’llangan. *Mulla Shoshqol domlaning beshta bo’yga yetgan, qaddi barkamol, saydovutday-saydovutday qizlari bo’lsa ham, bittagina o’g’ilning gadoyi edi.* (G’.G’ulom. “Farzandi solih”)

10) “ota-onasiz” semasiga ega leksemalar: *yetim, sag’ir, gulyetim, shumyetim, tirik yetim, chin yetim, chala yetim, ijtimoiy yetim, yetim-yesir, bepadar, onasiz, ota-onasiz, o’lik yetim. Yetim-yesir* so’zidagi *yesir* eri o’lgan, ersiz qolgan beva

³¹ Mahmudov N va b. O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 392.

³² Эшқобил Ш. Бобо сўз изидан. (Сўзлар билан сўзлашув). – Тошкент: Mashhur-press, 2018. – Б. 85.

xotin; beva, tul (O‘TIL.VI.177)ni bildiradi. *Yetim va yesir so‘zi birgalikda yetim bolalar ma’nosida qo‘llaniladi. Ko‘z oldimda tirikchilik deb harom-xarishdan hazar qilmagan, yetim-yesirning haqini seskanmay bemalol hazm qilib ketaveradigan bir kimsa paydo bo‘ldi.* (S.Ahmad. “Buqalamun bilan uchrashuv”) *Shumyetim* – onasi vafot etib, otasi bilan qolgan yetim bola. *Bu yil – o‘n yettinchi yilning ko‘klamida onamizdan ham ajralib, shumyetim bo‘lib qoldik.* (G‘.G‘ulom. “Mening o‘g‘rigina bolam”) “Ikki eshik orasi” romanida *o‘lik yetim* jumlasini qo‘llangan: *Zo‘ra menga bitta nevara tug‘ib berganida mana shu qilmishi uchun o‘z qo‘lim bilan chopib tashlardim. Nevaramni tirik yetim qilganidan ko‘ra, o‘lik yetim qilib o‘zim boqardim.* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”) Tadqiqot obyekti bo‘lgan “farzand” konsepti va uni ifodalovchi lingvistik vositalarning mazmun ko‘lami kengligi til egalari mentaliteti, xususan, madaniyati va kundalik hayotidagi qimmatini hamda qadriyat darajasining yuqoriligidan dalolat beradi.

2.2-bo‘lim “Farzand” konseptini tavsiflovchi o‘xshatish vositasining semantik-struktur tahlili” deb nomlangan. Badiiy matnlarning ta’sirchanligi va ifodaviyligini ta’minlashda *o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a, grotexs, ko‘chim, kichraytirish, kinoya* kabi vositalardan foydalaniladi. Badiiy matnlarda bolalarning tashqi ko‘rinishi, xarakteri, ruhiyati va ichki olamini ta’sirchan va esda qolarli tarzda tasvirlovchi o‘xshatishlar vazifasiga ko‘ra quyidagicha guruhlariga ajratiladi:

1. Tana-a’zolari tasvirlovchi o‘xshatishlar: a) bosh qismida joylashgan a’zolari ifodalovchi o‘xshatishlar: *munchoqday ko‘z, mushtdek bosh, popukdek qosh-ko‘z, tush surtilgandek quyuy kipriklar, zulukdek qora qoshlar, jodidek og‘iz, jag‘, tish, qoqilmagan namatdek bashara;* b) tananing qolgan qismlarini ifodalovchi o‘xshatishlar: *nav-niholdek gavda, alpdek qomat, erigan qo‘rg‘oshindek badan, toyloqdek bo‘y, tiqmachiqday oyoq;* O‘zbek madaniyatida bolalarning ko‘zlarini rangi va shaklini *munchoq, charos (uzum navi), qora gilosga* o‘xshatiladi. O‘zbek mentaliteti stereotiplariga ko‘ra chiroyli ko‘zlar dumaloq, qora ko‘zlardir³³. *Atrofdan munchoqdek ko‘zlarini qadab, ajib tomosha ko‘rayotgandek turgan jiyanlari oldida hislariga erk berishdan o‘zini tiydi.* (S.Ahmad. “Jimjitlik”)

2. Tashqi ko‘rinishni tasvirlovchi o‘xshatishlar: *pahlavondek, qo‘chqordek, guldek, lochindek, to‘tidedek, chumchiqday, quyondek, g‘unchadek, zig‘irday, so‘laqmonday;* Kattalarning *ko‘zi mening chumchiqday o‘g‘limga, yana bir qancha og‘zi bo‘sh kambag‘alga tikilibdi.* (Oybek. “Qutlug‘ qon”) Bolalarning tashqi ko‘rinishini ifodalagan *chumchiqday* o‘xshatishi “*juda kichik*”, “*ozg‘in*” ma’nolariga ega, lekin bu o‘rinda “*bechora*” konnotativ ma’nosi voqelangan.

3. Harakatlarni ifodalovchi o‘xshatishlar: *chumoliday g‘ivirlamoq, shamolday aylanmoq, chigirtkadek sakramoq, yeldek yugurmoq, o‘qdek otilib kirmoq, inidan mo‘ralagan qaldirg‘ochdek boshini chiqarmoq, koptokdek otilib tashqariga chiqmoq, jilov solinmagan asov jiyrondek shataloq otib yurmoq, zinadan chiqqan itdek narvonga tirmashmoq; Zinadan chiqqan itdek to‘rt oyoqlab narvonga tirmashib tomga chiqdim.* (G‘.G‘ulom. “Shum bola”) Harakatni ifodalovchi

³³ Усманов Ф. Ўзбек тилида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. фалс. д-ри. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 95.

zinadan chiqqan itdek o‘xshatishi komponentida bolaning yashash uchun kurashi, qo‘rquv aralash qochishi tasvirlangan.

4. Turli vaziyatlardagi holatlarni ko‘rsatuvchi o‘xshatishlar: *gadodek nochor, buzoqdek baqraymoq, it quvlagan tulkiday holdan toymoq, devorga suyab qo‘ygan kurakdek serrayib turmoq, xumga qamalgan yumrunday, qassobning qo‘liga tushgan biqqigina quyondek osilib qolmoq, to‘rvasini yo‘qotgan gadoydek talmovsiramoq; It quvlagan tulkiday holdan toygan edim.* (G‘.G‘ulom. “Shum bola”) *It quvlagan tulkiday* o‘xshatishi orqali charchoq, holsizlik ifodalangan. *Tulki* o‘zbek xalq tafakkurida *ayyorlik, chaqqonlik, tadbirkorlik, ishni ko‘zini bilish, ehtiyotkorlik* kabi ma‘nolar bilan voqelanadi. Qishloq joylarida uylarga kirib qolgan tulkilarni itlar anchagacha quvib ta‘qib qilishadi. Ta‘qib natijasida tulkingning olazarak va o‘ta charchab qolgan holatini misol qilish orqali bolaning ham lohasligi, madori yo‘qligi jonli tasvirlangan.

5. Xarakterni tasvirlovchi o‘xshatishlar: *olovday (sho‘x), simobday (beqaror), qo‘ydek (yuvosh).* *U ham kichkina, olovday bola edi.* (Oybek. “Qutlug‘ qon”) *Olovday* ko‘chma g‘ayrati ichiga sig‘maydigan, yuragida o‘ti bor, jo‘shqin. (O‘TIL.III.477) Tabiatan sho‘x, quloqsiz va to‘polonchi bolalarning xarakteriga nisbatan *olovday* o‘xshatishi qo‘llangan. “*Farzand/bola/qiz/yetim/o‘g‘il*” etalonli o‘xshatishlardan kattalarning bolalarga xos xatti-harakati, fe‘l-atvori, qiliqlarini o‘quvchining ko‘z o‘ngida yaqqol ifodalash va yengil kulgi yoki kinoya hosil qilish uchun foydalaniladi. Mazkur o‘xshatishlar milliy-madaniy konnotatsiyasida *xursand, quvonch, hasrat, qayg‘u, sakramoq, irg‘ishlamoq, yig‘lamoq, erkalanmoq, ermak qilmoq, kulmoq, ko‘tarmoq, unutmok, arazlamoq, o‘ng‘aysizlanmoq, shovqin-suron qilmoq, tarqalmoq, qumsamoq, erkin bo‘lmoq, bukilmoq, injiqlik qilmoq, serraymoq, gerdaymoq, bo‘zraymoq, javdiramoq, yupatmoq, gapirmoq* kabi konnotativ ma‘nolari ifodalangan. *Mamag‘voy jo‘ja o‘g‘irlab qo‘lga tushgan boladay o‘ng‘aysizlandi.* (G‘.G‘ulom. “Mamag‘voy tushundi”) Bolalar yoshligida juda ham bebosh bo‘lishadi. Ko‘pincha o‘g‘rilik, chaqimchilik kabi nomaqbul ishlarni qilishadi. Hikoyada Mamag‘voyning noqulay ahvolga tushganligi *jo‘ja o‘g‘irlab qo‘lga tushgan boladay* o‘xshatishi orqali ifodalangan. *Qovog‘ining peshayvoni tushib ketgan, to‘g‘ri gapga ham tersayib javob berar, mechkay kasalga uchragan bolalarday injiq edi.* (G‘.G‘ulom. “Shum bola”) Matnda *mechkay* so‘zi *raxit* kasali ma‘nosida qo‘llangan va “*injiq*” konnotativ ma‘nosi ushbu kasallik nomi bilan ochib berilgan.

